XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2022 - yil 5 - iyul VI-45-134-8-108-K/22 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumandagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida"gi O'RQ-303-son qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022- yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayonini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi raisi A.Djumayevning tumandagi ayrim Geografik ob'ektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi doimiy komissiyaga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3. Tuman bo‘yicha berilgan georgafik obyektlar (nomsiz ko‘chalar) mahallalar kesimida nomlash va qayta nomlash bo‘yicha berilgan takliflar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha mavjud 3 ta geografik obektlar (nomsiz ko‘chalar)ning nomlash bo‘yicha berilgan takliflar Respublika Kadastr agentligi ekspertiza komissiyasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilganligi inobatga olinib, tasdiqlash maqsadida

xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida davlat reestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

5. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Raxmanov) zimmasiga yuklatilsin.

6 Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.T.Djumayev**

Xalq deputatlari Oltinsoy tuman
Kengashining
2022 yil 5 iyuldagi
VI-45-134-8-108-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha berilgan nomlarni Respublika Kadastr agentlgi tomonidan ekspertizadan o‘tkazish maqsadida berilgan takliflar ro‘yxati

№	Gegrafik obeyktning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh:
1	2	3	4	5	6
1.	**Ko‘cha**	“Barkamol avlod” MFY	Nomsiz	Yaxshi niyat	1.Ushbu hududda ko‘plab to‘y va hashamlar ko‘p bo‘lishi yaxshi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi.
2	**Ko‘cha**	“Barkamol avlod” MFY	Nomsiz	Oltin voha	1.Oltin voha deganda deganda bu nom avvalo tumanimiz nomidan olingan bo‘lib, mahalladagi keng dalalarning sarg‘ayib oltinday tovlanishi uchun shu nom taklifi berildi.
3	**Ko‘cha**	“Besh bola pahlavon” MFY	Nomsiz	Ona zamin	Jannatmakon yurtimizga, ona zaminimizga hamohang tarzda havas qilinib ushbu nom taklifi berildi.